



## TISH IMPLANTATSIYASIDAGI PERI-IMPLANTITNI OLDINI OLISH CHORALARI

Shukurov Burhoniddin

Alfraganus university Stomatologiya fakulteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16558355>

### ARTICLE INFO

Received: 21<sup>st</sup> July 2025

Accepted: 25<sup>th</sup> July 2025

Published: 29<sup>th</sup> July 2025

### KEYWORDS

tish implantatsiyasi, peri-implantit, yallig'lanish, profilaktika, gigiyena, peri-implant to'qimalar, biofilm, antibakterial qoplama, davolash protokoli, stomatologik gigiyena

### ABSTRACT

*Tish implantatsiyasi bugungi kunda bevosita estetik va funksional tiklash usuli sifatida keng qo'llanilmoqda. Biroq, bu jarayon bilan bog'liq asoratlar, xususan peri-implantit - implant atrofidagi yumshoq va qattiq to'qimalarning yallig'lanishi - stomatologlar oldida muhim muammo bo'lib qolmoqda. Peri-implantit kechki bosqichda implant yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Ushbu maqolada peri-implantit rivojlanishining asosiy sabablari, xavf omillari, erta diagnostikasi va eng samarali profilaktik choralari ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, bemorlarning individual gigiyenasi, professional tozalash protokollari, yuzasiga qoplama texnologiyalarining roli va antibiotik terapiyasining oldini olishdagi o'rni yoritiladi. Maqola zamonaviy ilmiy tadqiqotlar asosida tayyorlangan bo'lib, stomatologik amaliyotda foydalanishga mos takliflar beradi*

**Kirish:** Tish implantatsiyasi zamonaviy stomatologiyada yo'qolgan tishlarni tiklashning eng ishonchli va uzoq muddatli usullaridan biridir. Shu bilan birga, bu jarayon bilan bog'liq ayrim asoratlar mavjud bo'lib, ularning eng xavflilaridan biri - peri-implantitdir. Peri-implantit - bu implant atrofidagi joylashgan to'qimalarning yallig'lanishi, ko'pincha suyak yo'qotilishi bilan kechadi. Ilmiy manbalarga ko'ra, implantatsiyadan so'ng 5-10 yil ichida bemorlarning 10-40% gacha bo'lgan qismida peri-implantit rivojlanadi.

Bu kasallikning rivojlanishiga ko'plab omillar sabab bo'ladi, jumladan, og'iz gigiyenasining yetarli darajada bo'lmasligi, parodontit tarixi, chekish, sistematik kasalliklar (masalan, diabet), implant yuzasining biofilmga moyilligi, shuningdek, noto'g'ri protez dizayni.

Ushbu maqolaning maqsadi - peri-implantitning oldini olish bo'yicha ilmiy asoslangan choralarni ko'rib chiqish, profilaktika va erta diagnostikaga alohida e'tibor qaratish, shuningdek, klinik tavsiyalar asosida stomatologlar uchun foydali bo'lgan takliflarni taqdim etishdir.

### Asosiy qismi

Peri-implantit sabablari va xavf omillari

Parodontit tarixi: Parodontal kasalliklar bilan og'rikan bemorlar peri-implantitga ko'proq moyil bo'ladi.

Biofilm hosil bo'lishi: Implant sirtida mikroorganizmlar to'planib, yallig'lanishni keltirib chiqaradi.

Chekish: Nikotin qon aylanishini pasaytirib, to'qimalarni zaiflashtiradi.

Gigiyena yetishmasligi: Professional tozalash va uy sharoitidagi gigiyena yetarli bo'lmasa, xavf ortadi.

1. Oldini olish strategiyalari:

Gigiyena muhimligi: Implantatsiyadan oldin bemor og'iz gigiyenasi bo'yicha o'rgatilishi lozim. Maxsus cho'tkalar, irrigatorlar, antibakterial vositalardan foydalanish tavsiya etiladi.

Yuzani muhofaza qilish: Implant sirtini modifikatsiyalash orqali bakteriyalarning yopishishini kamaytirish mumkin (masalan, TiUnite, SLActive kabi).

Professional nazoratida tozalash: Har 6 oyda stomatologik gigiyena amaliyoti, biofilmni tozalash, erta belgilarning kuzatilishi samarali natija beradi.

Antibakterial davolash: Xavfli guruhdagi bemorlarda yengil yallig'lanish bosqichida lokal antibiotiklar (klorhexidin gel, metronidazol) foydali bo'lishi mumkin.

2. Yangi texnologiyalar va tadqiqotlar:

Fotodinamik terapiya va lazer yordamida to'qima tozalash usullari.

Implant yuzasiga antibakterial qoplamalar – kumush nanozarrachalari, probiotik qoplamalar.

Genetik skrining orqali xavfli bemorlarni aniqlash.

**Xulosa:** Peri-implantit – implantatsiya samaradorligini pasaytiruvchi va implantni yo'qotishga olib keluvchi og'ir asoratdir. Unga qarshi kurashishda eng muhim bosqich – bu oldini olishdir. Profilaktika choralariga bemorni tayyorlash, gigiyena bo'yicha ta'lim berish, individual risklarni baholash va stomatologik nazorat kiradi. Ilg'or texnologiyalar va ilmiy yondashuvlar bu sohada muhim ahamiyatga ega bo'lib, har bir stomatolog bunday bilimlarga ega bo'lishi zarur. Yaxshi tashkil etilgan profilaktik reja peri-implantitning oldini olishda muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sanz M, Chapple IL. "research on peri-implant diseases: consensus report of working group 4." J Clin Periodontol. 2012.
2. Heitz-Mayfield LJ, Mombelli A. "The therapy of peri-implantitis: a systematic review." Int J Oral Maxillofac Implants. 2014.
3. Renvert S, Polyzois I. "Risk indicators for peri-implant mucositis: a systematic literature review." J Clin Periodontol. 2015.
4. Schwarz F, Derks J, Monje A, Wang HL. "Peri-implantant"